

**IX. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI
(LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)**

Asosiy adabiyotlar

1. Mirzaev M.A Turizm asoslari o'quv qo'llanma T-2011
2. Tuxliev I va boshqalar Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik T-2010
3. Mamatqulov X.M. Xalqaro turizm.-Samarqand, 2012
4. Usmonov M. Turizm geografiyasi.(o'quv qo'llanma)-Samarqand, 2019

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Komilava F.K Xalqaro turizm bozori. O'quv qo'llanma T-2011
2. Usmonov M.R., Jumaboev T.J., Shexolov O. Turizm geografiyasi 1-2 qism.- Samarqand, 2013
3. Mironenko N.S., Tvedoxlebov I.T. "Rekreatsiionnaya geografiya" -M. MGU 1981.
4. Zokirov S.S., Boltaev M.J. "Kraevedenie i ekonomika turizma" -T. 2001.
5. Mardonov B.B Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi bandligi. Monografiya T-2013
6. Safarov B.SH Turistik xizmatlar bozori. O'quv uslubiy qo'llanma Samarqand-2014

Axborot manbalari (saytlar):

- www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari portali
www.ziyonet.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali
www.UNWTO –Butunjahon turizm tashkiloti portali
www.tour.uz - O'zbekiston Respublikasi turizm davlat qo'mitasi
www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi portali

XII. Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrasini ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan (modul) uchun ma'sullar:

- M.Erdanov – geografiya kafedrasining muduri.
Z.Xolmatov – geografiya kafedrasining o'qituvchisi
S.Xursanov – geografiya kafedrasining o'qituvchisi

Taqrizchi:

M.Usmonov- Samarqand davlat universiteti "ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasida dotsent g.f.n.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



TURIZM VA REKREATSIYA GEOGRAFIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi
Ta'lim sohasi
Ta'lim yo'nalishi

500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
530000 – Fizikaga oid fanlar
60530400 – Geografiya

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
TRG110	2023-2024	5	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Tanlov	O'zbek/rus	4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklama (soat)
	Turizm va rekreatsiya geografiyasi	60	120

I. MODUL TAVSIFI (Description)

Turizm va rekreatsiya geografiyasi fanida 15 ta mavzu bo'lib, 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy mashg'ulot va 60 soat mustaqil ta'lim va mustaqil ish rejalashtirilgan.

Turizm va rekreatsiya geografiyasi 2 ta kichik moduldan ya'ni 1-modul (Turizm geografiyasi), 2-modul (Rekreatsiya geografiyasi), iborat bo'lib, har bir mavzu modul talablari asosida ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim hajmi va mazmuni, tegishli ballar topshirish muddatlari shuningdek, baholash me'zonlari hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini o'z ichiga oladi.

Turizm geografiyasi fanlarining tadqiqot ob'ektlari turizm tushunchasi, turizm maqsadlari va uning asosiy turlari va ko'rinishlarini ilmiy asosda tahlil qilish. Turizmning geografik xususiyatlari, o'rganish tarixi va uning mintaqalardagi xududiy tarkibi, yuksalish bosqichlari hamda xalqaro turizm geografiyasi va O'zbekistonda turizm geografiyasini talabalarga tushuntirishdan va kelgusida ilmiy yo'nalish berishdan iborat.

I. FANNING MAZMUNI

- turizm va turizmning maqsadlarini aniqlab olishi;
- turizmning tashkiliy tuzilishi va asosiy kategoriyalarini bilib olish;
- turistik industriya va unga bo'lgan talablarni o'rganish;
- turizm klassifikatsiyasini aniqlab olish;
- turistik industriya va unga bo'lgan talablarni o'rganish;
- turizm marshrutlari va turizm destinatsiyasini bilishi;
- turizmning regional xususiyatlarini
- O'zbekiston turizmi salohiyati haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)

1-mavzu. Kirish. Turizm geografiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari
Turizm geografiyasi fanlarining, xususan iqtisodiy va ijtimoiy geografyaning tadqiqot ob'ekti. Turizm tushunchasi, turizm maqsadlari va uning asosiy turlari va ko'rinishlari. Turizmning geografik xususiyatlari, o'rganish tarixi va uning mintaqalardagi xududiy tarkibi, yuksalish bosqichlari. Turizm geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
Adabiyotlar [1,3,5,6]

2-mavzu. Turizm turlari va uning klassifikatsiyasi

Jahon mamlakatlarida turistik resurslarining geografik joylashuvi va uning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi. Turizm kam xarajatli va katta daromad manbai ekanligi, sanoat, infra tuzilma, turistik mahsulotlar, turistik resurslar, milliy parklar. Tabiiy turistik resurslari, ekoturistik landshaft, tog', g'or, soxil, suv va boshqa turizm turlari. Madaniy turistik resurslar, tarixiy, arxetektura, arxeologiya, etnografik va boshqa turizm turlari. Evropa, Amerika, Osiyo, Afrika, Avstraliya va Okeaniya mintaqalarida xalqaro turizmning hissasi. Jahon turistik resurslari va uning geografik xususiyatlari hamda xududiy taqsimot. Halqaro turizm statistikasi. Ish yuzasidan safarga chiqish (geografiya delovogo turizma), diniy turizm geografiyasi hamda sog'liqni tiklash va sog'lomlashtirish turizmi.
Adabiyotlar [1,3,5,6]

3-mavzu. Turizm geografiyasining tarixi va rivojlanishi hamda industriyasi.

Mazkur fanning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini ba'zi ilmiy adabiyotlarda (Unitsiker, Martotti va h.k.) o'ziga xos tarixiy bosqichlar, M.V.Sokolova turizm tarixini keng ko'lami tadqiq etib 4 bosqichga (Qadimgi sayohat, O'rta asr yurishlari va sayohatlar, Yangi davr turizmi rivojlanishi va XX asr turizmi). Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda turizm tarixini 3 qismga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1.Qadimgi hamda o'rta asr va uyg'onish davri turizmi; 2. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr turizmi; 3.Hozirgi zamon turizmi. Qadimgi, o'rta asrlar, zamonaviy turizm tarixi, Yevropa, Amerika, Osiyo, Afrika turizmning shakllanishi, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi, Buyuk Ipak yo'li, Temur va temuriylar davrida sayyohlikning rivojlanishi, dastlabki turistik sayohatlar savdo sotiq maqsadlarida vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi, bundan 14 ming yil avvalgi qadimgi Misrda o'ziga xos tusha kirgan Misr shohi Xatshesput dengiz ekspeditsiyasida sayohat uyushtiradi. Eramizdan avvalgi VI – asrda Misr fraumi Nexao uch yillik sayohatni Afrika bo'ylab tashkil etadi. Turizm ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o'sib bordi. K.Liberening ta'rificha, «Yevropada XVIII asrda turizm yangi ko'rinish oldi va sayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadi»Butunjahon turistik tashkiloti» (WTO) 1974- yili tashkil topgan xalqaro sayyohlik tashkiloti.
Adabiyotlar [1,2,4,6]

4-mavzu. Turizmni rivojlantirish omillari

Jahondagi xalqaro turistik tashkilotlarining maqsadi va vazifalari. Tabiiy resurs va uning muhofazasida turizmning ahamiyati. Jahon xujjaligida tutgan roli, Dunyoning rivojlangan turistik shaharlarida turistik infratuzilma va turindustrialni rivojlantirish. Turizm ko'p tarmokli sohalarga aloqadorligi, turizmning asosiy tushunchasi, rivojlanish bosqichlari va omillari.

Adabiyotlar [1,3,5,6]

5-mavzu. Turizm destinatsiyasi

Destinatsiya" so'zining ingliz tilidan tarjimai – "Destination" – "joy, belgilangan joy, makon" ma'nosini anglatadi. "Turistik destinatsiya" termini Leyper tomonidan 1980 yillarning o'rtasida kiritilgan. Hozirda destinatsiya – bu ma'lum chegaraga ega bo'lgan, turistlar keng ko'lami guruhini jalb eta oladigan va ularning talablarini qondira oladigan geografik hudud hisoblanadi. Turizm destinatsiya tushunchasi, ta'rifi, geografik xususiyatlari, turizm bozori, turistik manzillar va maskanlar. Turistik destinatsiya hosil qiluvchi geografik omillar. Etakchi turistik destinatsiyalar.

Adabiyotlar [1,2,4,6]

6-mavzu. Jahonning turistik regionlari

Butunjahon turistik tashkilot dunyoni 6 ta turistik regionlarga bo'ladi. Lekin bu rayontashlashda to'liq geografik omillar emas balki turizmning ahamiyati va siyosiy geografik xususiyatlari inobatga olingan. Yevropa turistik regionini (G'arbiy, Shimoliy, Janubiy, Markaziy va Sharqiy Yevropa subregionlari, shuningdek, sobiq Ittifoq davlatlari, Sharqiy, O'rta dengizda Isroil, Kipr, Turkiya); Amerika turistik regionini (Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika subregioni, Karib havzasi hududlari va orol davlatlari); Osiyo-Tinch okeani turistik regionini (Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya subregioni); Afrika turistik regionini (Misr va Liviyadan tashqari barcha Afrika davlatlari); Janubiy Osiyo turistik regionini (Janubiy Osiyodagi barcha davlatlar); O'rta Sharq turistik regionini (Turkiya va Isroildan tashqari barcha G'arbiy va Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari).

Adabiyotlar [1,2,4,6]

7-mavzu. Yevropa regionini turizm geografiyasi

Tabiiy va madaniy turistik ob'ektlar. Tabiat yodgorliklari, ekoturistik resurslar, tabiat tomonidan yaratilgan turistik maskanlar, inson kuli bilan yaratilgan turistik resurslar, binolar, bog'lar, arxitektura yodgorliklari va xokozolar Geografik o'rni va joylashuvi, subregionlari, davlatlar, turistik markazlari, shaharlari. Yevropa milliy iqtisodiyotning yuksalashda turizmning ahamiyati. Tarmoqning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan tutgan roli. Evropa mamlakatlarining turizmning gurkirab rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar, Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya. Apenin, Pereney davlatlarida turizmning rivojlanishi.

Adabiyotlar [1,3,5,6]

8-mavzu. Amerika regionini turizm geografiyasi

Geografik o'rni va joylashuvi, subregionlari, davlatlar, turistik markazlari, shaharlari Amerika davlatlarida iqtisodiyotida turizmning roli, Aholining milliy ananalarini, tabiiy va madaniy turistik resurslarga bo'yligi, Jumladan mehnat

resurslaridan samarali foydalanishda turizmning o'rni. Amerika mamlakatlarining turizmning gurkirab rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar, AQSH, Braziliya, Kolumbiya, Venesuela, Braziliya davlatlarida turizmning rivojlanishi.

Adabiyotlar [1,2,4,6]

9-mavzu. Osiyo –Tinch okeani regionini turizm geografiyasi

Geografik o'rni va joylashuvi, subregionlari, davlatlar, turistik markazlari, shaharlari Osiyo davlatlarida milliy iqtisodiyotida turizmning usib borishi, Osiyo tarakkiyoti va iqtisodiyoti milliy analarga bo'yligi, jaxon dimlari markazi, tabiiy va madaniy turistik resurslarga bo'yligi, Osiyo mamlakatlarining turizmning gurkirab rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Gonkong, Tailand, Indoenziya va Malayziya, Singapur davlatlarida turizmning rivojlanishi va usib borishi.

Adabiyotlar [1,3,5,6]

10-mavzu. Janubiy Osiyo regionini turizm geografiyasi

Geografik o'rni va joylashuvi, subregionlari, davlatlar, turistik markazlari, shaharlari Osiyo davlatlarida milliy iqtisodiyotida turizmning usib borishi, Osiyo tarakkiyoti va iqtisodiyoti milliy analarga bo'yligi, jaxon dimlari markazi, tabiiy va madaniy turistik resurslarga bo'yligi, Osiyo mamlakatlarining turizmning gurkirab rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar, Hindiston, Bangladesh, Pokiston davlatlarida turizmning rivojlanishi va usib borishi.

Adabiyotlar [1,2,4,6]

11-mavzu. O'rta Sharq regionini turizm geografiyasi

Geografik o'rni va joylashuvi, subregionlari, davlatlar, turistik markazlari, shaharlari Osiyo davlatlarida milliy iqtisodiyotida turizmning usib borishi, Osiyo tarakkiyoti va iqtisodiyoti milliy analarga bo'yligi, jaxon dimlari markazi, tabiiy va madaniy turistik resurslarga bo'yligi, Osiyo mamlakatlarining turizmning gurkirab rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar, BAA, Saudiya Arabistoni, Misr Arab respublikasi, Qatar, Baxreyn.

Adabiyotlar [1,3,5,6]

12-mavzu. Afrika regionlari turizm geografiyasi

Afrika dunyoning eng qoloq va ekoturizm imkoniyati yuqori mintaqqa sifatida. Milliy bog'lar, quriqxonalar, qadimiy madaniyat, urf odatlar, yashash tarzi, va milliy iqtisodiyotida turizmning ahamiyati, Afrika iqtisodiyoti milliy analarga bo'yligi, tabiiy va madaniy turistik resurslarga bo'yligi, Afrika mamlakatlarining ekoturizmning gurkirab rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar, JAR, Tanzaniya, Kongo davlatlarida turizmning rivojlanishi va usib borishi.

Adabiyotlar [1,2,4,6]

13-mavzu. O'zbekistonning turizm imkoniyatlari va salohiyati

Geografik o'rni va joylashuvi, turistik regionlari, viloyatlar, turistik markazlari, shaharlari. Tabiiy sharoitining turizmning ahamiyati, tarixiy va madaniy turistik imkoniyatlari, 7000 dan ortiq turistik ob'ektlari, Turistik salohiyatining ahamiyati.

Adabiyotlar [1,3,5,6]

14-mavzu.O'zbekistonni turistik rayonlashtirish masalalari
Turistik rayonlashtirish masalalari. Tabiiy, madaniy, ekoturistik rayonlashtirish masalalari, O'zbekistonda turistik markazlar. 6 ta turistik rayonlar. **Adabiyotlar [1,2,4,6]**

15-Surxondaryo viloyati turizm geografiyasi
Geografik o'rni va joylashuvi, turistik maskanlari, tumanlar turistik imkoniyatlari. Tabiiy sharoitining turizmga ahamiyati, tarixiy va madaniy turistik imkoniyatlari, turistik ob'ektlari, Turistik salohiyatining ahamiyati. **Adabiyotlar [1,3,5,6]**

III. Turizm geografiyasa fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

1. Turizm geografiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Atrof muhitni muhofaza qilish va ekoturizm
3. Turistik rayonlashtirish
4. Xalqaro turizmning mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari
5. Rekreatsion obektlar va ular bilan ishlash
6. Turistik xaritalar tuzish va ular bilan ishlash
7. Turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar
8. Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi
9. Osiyo mamlakatlarida turizmning rivojlanishi
10. Amerika mamlakatlarida turizmning rivojlanishi
11. Afrika mamlakatlarida turizmning rivojlanishi
12. Avstraliya va Okeaniya mamlakatlarida turizmning rivojlanishi
13. O'zbekistonni turistik rayonlashtirish
14. O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati
15. Surxondaryo viloyati turistik salohiyati

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Turizm geografiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari mavzusida esse yozib kelish
2. Turizm turlari va klassifikatsiyasi klaster sxemasini taqdimoti
3. Turizm geografiyasining tarixi va rivojlanishi hamda industriyasi, turizmni rivojlantirish omillari referat yozish
4. Turizm destinatsiyasi vektorina savollari tayyorlash
5. Jahonning turistik regionlari. Yevropa regioni turizm geografiyasi taqdimot tayyorlash
6. Amerika regioni turizm geografiyasi test materiallari tayyorlash
7. Osiyo -Tinch okeani va Janubiy Osiyo regionlari turizm geografiyasi blits savollar tayyorlash
8. O'rta SHarq Afrika regioni turizm geografiyasi referat yozish
9. O'zbekistonning turizm imkoniyatlari va salohiyati SWOT tahlil qilib kelish

10. O'zbekistonni turistik rayonlashtirish masalalari karta-sxemasi va foto ko'rgazma tayyorlash

Izoh- Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari hamda ularning bajarilish shakllari, tegishli maksimal ball va topshirish muddatlari modul - kredit bo'yicha taqsimot jadvalida berilgan.

VI. Ta'lim natijalari

(Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)

Turizm va turist tushunchalarini ta'riflash, ularning ilk ko'rinishlari, jahon turizm tajribasining ilg'or namunalari bilan o'rtoqlashish; turizm va turizmning maqsadlarini aniqlab olish; turizmning tashkiliy tuzilishi va asosiy kategoriyalarini bilib olish; turistik industriya va unga bo'lgan talablarni o'rganish; turizm infratuzilmasi haqida ma'lumot olish; turizm turlari va uning asosiy ko'rinishlarini belgilab chiqish; turistik resurslarni tushuntirib berish; turistik tovarlar va mahsulotlar haqidagi tushunchalarni egallash; turistik xizmatlar va servis darajasini takomillashtirish sirlarini ochib berish; turizm marshrutlari va maxsus marshrutlar haqidagi haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;

“Turizm geografiyasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba turizm geografiyasi, turlari, rivojlanishi qonuniyatlari ko'nikmalariga ega bo'lishi;

Talaba turizm tarmoqlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, ularni o'zaro aloqadorligi to'g'ri tahlil qilish *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VIII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.